



Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi

“KICHIK QADAMLAR — KATTA O‘ZGARISHLAR: BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH”

MAVZUSIDA WORKSHOPNI TASHKIL
ETISH BO‘YICHA QO‘LLANMA

Mazkur workshop bolalarda ekologik ong va mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan samarali yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlar bilan metodistlarni tanishtiradi.



Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan.

Muallif:

Najimova Komila Shavkatovna

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining yetakchi mutaxassisi



1-QISM

Mundarija

Workshop vazifasi.....	4
Ekologik madaniyat nima va nega erta yoshdan shakllantiriladi?.....	5
Nazariy asoslar va konseptual yondashuv.....	6
Amaliy mashg'ulotlar.....	9
“Kichik qadamlar – katta o'zgarishlar: bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish” mavzusida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.....	10
“Storytelling” mashg'uloti.....	10
Mening tabiatdagi izim mashg'uloti.....	11
“Eko qahramonlar” sarguzashti.....	12
Ekologik ta'lim uchun yaratilgan zamonaviy resurslar.....	27
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan yaratilgan resurslar.....	28

Workshop vazifasi

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi haqida

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi ta'lim tizimiga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, metodik ta'minotni takomillashtirish, ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish hamda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va tatbiq etishga ixtisoslashgan muassasadir. Markaz ta'lim jarayonini ilmiy asosda rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha tizimli faoliyat olib boradi.

Workshop haqida

Mazkur metodik qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor o'rinbosarlari orqali bog'cha yoshidagi bolalarda ekologik ko'nikmalarni shakllantirishga mo'ljallangan. Workshop bolalarda ekologik savodxonlikni rivojlantirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliy mashg'ulotlar orqali singdirish hamda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

Metodistlar mazkur materiallarni kaskad usuli asosida boshqa metodistlarga yetkazish orqali ekologik ta'limni tizimli va keng qamrovli joriy etishlari ko'zda tutilgan.

Ekologik madaniyat nima va u nega erta yoshdan shakllantiriladi?

Ekologik madaniyat – bolaning tabiatni “umumiy uyimiz” sifatida anglab, unga nisbatan mehr, ehtiyotkorlik, mas’uliyat va to‘g‘ri odatlar (saralash, tejash, qayta foydalanish, parvarish)ni kundalik hayotiga singdirishi demakdir. Maktabgacha yoshda ushbu ko‘nikmalar “qoidalar”dan ko‘ra ko‘proq hissiy tajriba, o‘yin, kuzatuv va amaliy faoliyat orqali shakllanadi.



Ilmiy dalillarga ko‘ra, kichik yoshdagi bolalar ekologik xavflarga (havo, suv, oziq-ovqat ifloslanishi; iqlim o‘zgarishi) kattalarga nisbatan ko‘proq ta’sirchan: ular tana vazniga nisbatan ko‘proq havo yutadi, ko‘proq suv va oziq-ovqat iste’mol qiladi, organizmining himoya tizimlari esa, hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

Ijobiy o‘zgarishlarga erishishning muhim vositalaridan biri – jamiyat rivojlanishining asosiy poydevori sifatida erta bolalikka investitsiya kiritishga qaratilgan fikrlash tarzini shakllantirishdir.

Agar kattalar tomonidan jamiyatning eng yosh a‘zolari bilan birgalikda ekotizimlarga hukmronlik qiluvchi hamda vayronkor yondashuv o‘rniga konstruktiv, teng va hamkorlikka asoslangan munosabat yo‘lga qo‘yilsa, ulg‘aygan sari tabiatni qadrlaydigan va uni asrashga intiladigan avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.



Nazariy asoslar va konseptual yondashuv

Erta bolalik davri inson salohiyatini shakllantirish va ijtimoiy kapitalni rivojlantirish uchun noyob imkoniyat bo'lib, jamiyat taraqqiyoti hamda davlatlarning kelajakdagi barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik nazariya va xalqaro tajribalarga asoslangan holda tashkil etilishi lozim. Ushbu jarayonda pedagogning bolalar yosh xususiyatlarini, psixologik rivojlanish bosqichlari hamda ularning atrof-muhitni qabul qilish darajasini inobatga olgan holda faoliyat yuritishi muhimdir.

1. Faoliyatga asoslangan ta'lim yondashuvi

Mazkur konsepsiya bolalarda tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat hissini shakllantirishga qaratilgan.

Pedagog uchun tavsiya:

- suv va elektrni tejash odatlarini o'rgatish;
- qayta foydalanishni targ'ib qilish;
- ekologik muammolarni sodda misollar bilan tushuntirish.

2. Integrativ yondashuv

Ekologik ta'lim alohida fan sifatida emas, balki nutq rivoji, matematika, san'at, jismoniy tarbiya kabi sohalar bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi lozim.

Pedagog uchun tavsiya:

- tabiat haqidagi ertaklar orqali bolalar nutqini rivojlantirish;
- barglar va toshlar yordamida sanash mashqlarini o'tkazish;
- qayta ishlangan materiallardan foydalanib, ijodiy ishlar qilish.

3. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (ESD) konsepsiyasi

Ekologik bilimlar bolalar tomonidan eng samarali tarzda amaliy faoliyat orqali o'zlashtiriladi. Tajribalar, o'yinlar, kuzatuvlar, tabiat bilan bevosita muloqot qilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega.

Pedagog uchun tavsiya:

- chiqindilarni saralash o'yinlarini tashkil etish;
- minibog' yaratish;
- florarium va tajribalar o'tkazish;
- kuzatuv kundaliklaridan foydalanish.

4. Tadqiqotga asoslangan ta'lim yondashuvi

Ushbu yondashuv bolalarda kuzatuvchanlik, savol berish, sabab-oqibatni aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bola tayyor bilimni emas, balki o'zi izlanish orqali ekologik tushunchalarni kashf etadi.

Pedagog uchun tavsiya:

- “Nega barglar sarg'ayadi?”, “Nima uchun suv bug'lanadi?” kabi savollar berish;
- oddiy tajribalar tashkil etish (suv aylanishi, o'simlik o'sishi).



5. Hamkorlikka asoslangan ta'lim modeli

Ekologik tarbiya pedagog, bola, ota-ona va jamiyat hamkorligida samarali amalga oshiriladi.

Pedagog uchun tavsiya:

- ota-onalar bilan ekologiyalarni amalga oshirish;
- uyga ekologik topshiriqlar berish;
- umumiy tadbirlar va aksiyalar o'tkazish.

6. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish yondashuvi

Ekologik madaniyat faqat bilim emas, balki hissiy munosabatdir. Bola tabiatni sevishi, unga mehr bilan qarashi lozim.

Pedagog uchun tavsiya:

- tabiat haqidagi suhbatlar;
- jonli mavjudotlarga g'amxo'rlik qilish;
- "Tabiat do'sti" loyihalari.



Amaliy mashg'ulotlar



Ushbu amaliy mashg'ulotlar bolalarning ekologik bilimlarni amaliy faoliyat orqali samarali o'zlashtirishini ta'minlaydi hamda ularning qiziqishini doimiy qo'llab-quvvatlaydi. Pedagog mazkur yondashuvlar orqali bolalarda tabiatga ongli munosabat, mas'uliyat va barqaror ekologik xulq-atvorni bosqichma-bosqich shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1. O'yin va tajriba asosida o'qitish

- Saralash o'yinlari (“Baxtli Yer—Xafa Yer”, “Qaysi qutiga?”)
 - Mini-eksperimentlar (suvni tejash, quyosh (isitish)/shamol (quritish) energiyasi)
 - Rolli o'yinlari (“Eko qahramonlar”, “Tabiat posbonlari”)

3. Kundalik odatlarni shakllantirish

- “Qayta ishlatish” (shopper, qayta foydalaniladigan idish)
- “Tejash” (suv/elektr)
- “Saralash” (qog'oz/plastik/organika)

2. Kuzatuv va savol-javob

- “Nimani ko'rdik?”
- “Nega shunday bo'ldi?”
- “Qanday yordam bera olamiz?”

Kuzatuv kundaligi/rasm chizish orqali bolada sabab-oqibat bog'lanishi shakllanadi.

4. Xavfsizlik va yoshga moslik

Shisha/metall kabi xavfli materiallar bilan ishlashda faqat pedagog nazorati. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bolalarning ekologik xavflarga sezgirligini qayd etar ekan, xavfsiz muhit va himoya choralarini muhim deb belgilaydi.



“Kichik qadamlar — katta o‘zgarishlar: bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish” mavzusida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish

“Storytelling” mashg‘uloti

Storiteling – bu tarbiya, rivojlanish va ta’limning pedagogik masalalarini hal qilishga qaratilgan, aniq tuzilishga va qiziqarli qahramonga ega bo‘lgan hikoyalarni qo‘llashga asoslangan pedagogik texnika.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish bolalar nutqiy tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Aynan bog‘lanishli nutqda til va nutqning asosiy – kommunikativ funksiyasi amalga oshiriladi. Bog‘lanishli nutq – bu bolaning nutqiy va aqliy rivojlanish darajasini belgilab beruvchi aqliy faoliyatning oliy shaklidir.

Hikoyali kubiklar

- **Maqsad:** maktabgacha yoshdagi bolalarda to‘qish va nutqiy ijodkorlik ko‘nikmalarini rag‘batlantirish va rivojlantirish.
- **Material:** turli xil rasmlar tushirilgan kubiklar.
- **O‘yinning tashkili:** O‘yinning mohiyati shundaki, kubiklarni stolga tashlab, bola hikoyani “Bir kuni...” yoki “Qadim-qadim zamonda...” kabi so‘zlar bilan boshlaydi. Kubiklar soni cheklanmagan. O‘yinchi barcha kubiklarni birdaniga tashlashi yoki ularni bittalab olishi mumkin. O‘yinda bir nechta o‘yinchi ham qatnashishi mumkin. Bunda hikoyalar doirasining birinchi ishtirokchisi (ertak to‘qishda qatnashayotganlarning barchasi orasidan) voqealar sodir bo‘ladigan sahnani (fonni) aniqlash uchun birinchi kubikni tashlaydi. Keyin boshqa ishtirokchi ikkinchi kubikni tashlaydi va oldingi tugunga tafsilotlarni qo‘shib, hikoyani davom ettiradi. Shu tariqa ertak tugaguncha davom etadi.

O‘yinni murakkablashtirish mumkin: o‘yin variantlaridan biri “5 yurishda ertak” bo‘lib, unda ishtirokchi faqat 5 ta asosiy rasmdan foydalangan holda iloji boricha, kengaytirilgan syujetni o‘ylab topishga ulgurishi kerak.



“Mening tabiatdagi izim” mashg‘uloti

Mashg‘ulot maqsadi:

Bolalarda tabiatga nisbatan mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish, kundalik xatti-harakatlarning atrof-muhitga ta‘sirini tushuntirish hamda ekologik madaniyat elementlarini erta yoshdan rivojlantirish.

Vazifalar:

- bolalarga tabiatga foydali va zararli xatti-harakatlarni farqlashni o‘rgatish;
- rasmlar va vizual materiallar orqali ekologik vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- suvni tejash, chiqindilarni saralash, energiyani tejash kabi oddiy ekologik odatlarni shakllantirish;
- bolalarda mustaqil fikrlash va o‘z tanlovini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- jamoada ishlash, fikr almashish va bir-birini tinglash madaniyatini rivojlantirish.

Mashg‘ulot jarayoni:

Tarbiyachi bolalarga Yer sayyorasi va insonlarning tabiatga qoldiradigan “izlari” haqida sodda tushuntirish beradi. So‘ng “Yaxshi iz” va “Yomon iz” rasmlari ko‘rsatiladi hamda bolalar bilan birgalikda rasmlardagi xatti-harakatlarning tabiatga ta‘siri muhokama qilinadi. Bolalar rasmlarni mos izlarga joylashtiradilar yoki ranglar yordamida belgilaydilar. Mashg‘ulot yakunida bolalar bilan muhokama o‘tkazilib, tabiatni asrash uchun qanday foydali odatlar qilish mumkinligi haqida xulosalar chiqariladi.

Kutilayotgan natijalar:

Mashg‘ulot yakunida bolalar tabiatga foydali va zararli xatti-harakatlarni farqlay oladilar, ekologik muammolar haqida sodda tushunchaga ega bo‘ladilar hamda suvni tejash, chiqindilarni to‘g‘ri tashlash va tabiatni asrash kabi ekologik xulq-atvorni kundalik hayotda qo‘llash zarurligini anglay boshlaydilar.



Eko qahramonlar sarguzashti

Mashg'ulot maqsadi:

Bolalarda chiqindilarni to'g'ri saralash ko'nikmasini shakllantirish, atrof-muhitni asrash va toza saqlashning ahamiyatini tushuntirish hamda ekologik mas'uliyatni rivojlantirish.

Vazifalar:

- bolalarga turli chiqindilar (plastik, qog'oz, metall, organik chiqindi) turlarini tanib olishni o'rgatish;
- chiqindilarni maxsus qutilarga saralash ko'nikmasini shakllantirish;
- tabiatni ifloslanishdan himoya qilish haqida tushuncha berish;
- jamoada ishlash va hamkorlikda muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Mashg'ulot jarayoni:

Tarbiyachi bolalarga Yer sharining rasmi yoki maketini ko'rsatib, unga joylashtirilgan chiqindi kartochkalarini namoyish etadi va Yer sayyorasi toza bo'lishi uchun chiqindilarni to'g'ri yig'ish muhimligini tushuntiradi. So'ngra bolalar navbat bilan Yer sharidagi chiqindi kartochkalarini olib, ularni mos chiqindi qutilariga (qog'oz, plastik, shisha, organik) soladilar. Mashg'ulot yakunida bolalar bilan muhokama o'tkazilib, tabiatni toza saqlash va chiqindilarni saralashning ahamiyati haqida xulosa chiqariladi.

Kutilayotgan natijalar:

Mashg'ulot yakunida bolalar chiqindilar turlarini farqlay oladilar, ularni to'g'ri qutilarga joylashtirish ko'nikmasini egallaydilar hamda tabiatni toza saqlash har bir insonning muhim vazifasi ekanligini anglay boshlaydilar.